



TASDIQLAYMAN:

Boshqaruv raisining birinchi
o‘rinbosari-Ijrochi direktor
D.Axmedov

MAXSUS O‘QUV KURSI DASTURI
“O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatida korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi
hamda boshqa qoidabuzarliklarni oldini olish yo‘nalishida
tarkibiy bo‘linmalarning majburiyatlari to‘g‘risida mavzusi bo‘yicha

O‘quv dasturning davomiyligi: 24 soat.

O‘qish shakli: an‘anaviy (*auditor mashg‘ulotlar*).

Tinglovchilar kontingenti: korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko‘p moyil bo‘lgan lavozimlarda ishlovchi xodimlar.

T/r	Mavzular nomlari	Soat soni
1.	Kirish. Korrupsiya, tarixiy ma‘lumot. Turli davrlarda va turli madaniyatlarda korrupsiyaga munosabat. Korrupsionerlarning faoliyat turlari va korrupsiyaning tarqalishi. Korrupsiya turlari va korrupsion amaliyotlar. Korrupsiyaning maqbul darajasi... bu qanday mumkin? Korrupsiyaga ta‘sir qiluvchi omillar. Korrupsiyaning “formulalari”.	1,5
2.	Korrupsiyaning sabablari va oqibatlari. Yuqori korrupsiyaning sabablari, korrupsiya darajasiga ta‘sir qiluvchi obyektiv holatlar, yuqori korrupsiya sabablari haqidagi farazlar. Korrupsiyaning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari. Korrupsiya ijobiy oqibatlarga olib kelishi mumkinmi? (D. Xyustonning tadqiqoti)	1,5
3.	Yuqori xavfli hududlar: korrupsiya tez-tez uchraydigan joylar korrupsiyaga misollar: tipik va atipik.	0,5
4.	Korrupsiya ta‘riflari. 2017-yil 03.01-dagi "Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida" O‘RQ-419-son qonundagi ta‘rif, BMT Bosh Assambleyasining ta‘rifi, sotsiologik ta‘rif.	0,5
5.	Korrupsiyaning har qanday namoyon bo‘lishiga nol bardoshlik tamoyili.	0,5
6.	Xalqaro korrupsiya indeksleri. O‘zbekistonda korrupsiyaga rioya qilish va uni idrok etish (2021 va 2022-yillardagi qiyosiy natijalar).	0,5
7.	ISO 37001:2016 Xalqaro standarti. Korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimlari. Tarkib, umumiy nuqtai nazar. Atamalar va ta‘riflar. Korrupsiyaga qarshi Siyosat. Xabardorlik va trening. Nazorat ostidagi tashkilotlar va biznes sheriklar tomonidan korrupsiyaga qarshi nazorat choralarini amalga oshirish. Korrupsiyaga qarshi majburiyatlar. Sovg‘alar, minnatdorchilik belgilari, xayr-ehsonlar va shunga o‘xshash imtiyozlar. Shubhalar haqida ma‘lumot berish. Tergov va korrupsiyaga qarshi choralar. Rasmiyatchilikni soddalashtirish uchun mukofotlar va tovlamachilik. Korrupsiyaga qarshi kurashish. Mehnat tartibi. Xodimlarni kompleks tekshirish. Ish natijalariga ko‘ra bonuslar. Manfaatlar to‘qnashuvi. Tashkilot xodimlarining poraxo‘rligi. Moliyaviy nazorat. Moliyaviy bo‘lmagan nazorat. Tergov va korrupsiyaga qarshi choralar. Korrupsiya xavfini baholashning maqsadi va me‘zonlari. Xatarlarni baholash Uslubiyotining asoslari. * Amaliy mashg‘ulot. “O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatining korrupsiya xavflari xaritasi: aniqlash, baholash va munosabat bildirish choralarini ishlab chiqish. * Amaliy mashg‘ulot. Korrupsiya xavfi yuqori bo‘lgan lavozimlar ro‘yxati. * Amaliy mashg‘ulot. Korrupsiya xavfi jarayonlarini tahlil qilish.	7
8.	Muvofiqlik va ISO 37301: 2021 xalqaro standarti. Biznes etikasi kodeksi: “O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyati maqsadi, vazifasi, qadriyatlar. Jamiyatning mansabdor shaxslari/xodimlarining korrupsiyaga qarshi cheklovlarni qabul qilishga roziligi.	3

T/r	Mavzular nomlari	Soat soni
9.	Kombinatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Siyosati. "O'zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyati korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi maqsadi va vazifalari.	1
10.	Korrupsiyaga qarshi kurashning asosiy tamoyillari. Amaldagi korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlarining talablari va unga rioya qilish majburiyatlari. Korrupsiyaga qarshi faoliyat yo'nalishlari. Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va hal qilish. Korrupsiya xavfini aniqlash va baholash. Korrupsiyaga qarshi monitoring. Korrupsiya xavflarining ichki tahlili. Korrupsiyaga qarshi madaniyatni shakllantirish. Korrupsiya huquqbuzarliklari to'g'risidagi hisobotlar. Korrupsiya huquqbuzarliklarini rasmiy tergov qilish. Javobgarlik.	4
11.	Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini normativ-huquqiy qo'llab-quvvatlash: * 03.01.2017-yildagi O'RQ-419-son "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida". Umumiy qoidalar. O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlari. Davlat boshqaruvida korrupsiyaning oldini olish choralari. Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va hal qilish choralari. Davlat xaridlari sohasidagi korrupsiyaning oldini olish choralari. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida ma'lumot bergan shaxslarni va ularning yaqin qarindoshlarini himoya qilish; * Korrupsiyaga qarshi faoliyatni samarali tashkil yetish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 06.07.2021-yildagi PQ-5177-son Qarori; * O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 06.07.2021-yildagi PF-6257-son korrupsiyaga murosasiz munosabat muhitini yaratish, Davlat va jamiyat boshqaruvidagi korrupsiya omillarini tubdan kamaytirish, shuningdek, bu jarayonga jamoatchilikni keng jalb yetish chora-tadbirlari to'g'risida Farmoni * 355-IV/PC-77-IV-sonli 12.06.2020-yildagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining korrupsiyaga qarshi kurashish organini shakllantirish to'g'risidagi qarorlari loyihalarini muhokama qilish natijalari to'g'risida; * O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.06.2020-yildagi PF-6013-sonli O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida * O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining qarori, 30.09.2019-yildagi 2782-III-sonli Korrupsiyaga qarshi kurashish ustidan parlament nazorati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida; * O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 27.05.2019-yildagi PF-5729-sonli O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida; * O'RQ-158-sonli 07.07.2008-yildagi O'zbekiston Respublikasining Birlashgan Millatlar Tashkilotining korrupsiyaga qarshi Konvensiyasiga qo'shilishi to'g'risida (Nyu-York, 31-oktyabr 2003-yil); * Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligining poraxo'rlikka qarshi Qonuni 2010 (Buyuk Britaniyaning poraxo'rlik to'g'risidagi Qonuni, 2010); * AQShning 1977-yildagi "Chet elda korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonuni (xorijiy korrupsiya amaliyoti to'g'risidagi qonun, 1977-yil); * Xalqaro biznes operatsiyalarida xorijiy mansabdor shaxslarning poraxo'rlikiga qarshi kurash to'g'risidagi IRvaHTKonvensiyasi (xalqaro biznes operatsiyalarida xorijiy Davlat amaldorlarining poraxo'rlikiga qarshi kurash to'g'risidagi IRvaHT	4

T/r	Mavzular nomlari	Soat soni
	Konvensiyasi) 21 yil 1997-noyabrda qabul qilingan; * BMTning korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi (Birlashgan Millatlar Tashkilotining korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi) (BMT Bosh Assambleyasining 2003-yil 31-oktyabr Nyu-Yorkda bo‘lib o‘tgan 51-yalpi majlisida 58/4 rezolyutsiya bilan qabul qilingan).	
	Jami o‘quv soatlari	24

Ishlab chiqdi:

Komplayens xizmati boshlig‘i

A.Badalbayev

Keishildi:

**Xodimlarni malakasini baholash,
o‘qitish va rivojlantirish boshqarmasi
boshlig‘i**

B. Gulamov



TASDIQLAYMAN:

Boshqaruv raisining birinchi
o'rinbosari-Ijrochi direktor
D.Axmedov

MALAKA OSHIRISH O'QUV KURSI DASTURI
“O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatida korrupsiyaga qarshi kurash tizimini tashkil etish va korrupsiyani oldini olish asoslari” mavzusi bo‘yicha

O'quv dasturning davomiyligi: 10 soat.

O'qitish shakli: an'anaviy (*auditor mashg'ulotlar*).

Tinglovchilar kontingenti: kombinatning (yangi ishga qabul qilingan) xodimlari.

T/r	Mavzular nomlari	Soat soni
1.	Kirish. Korrupsiya, tarixiy ma'lumotlar. Turli davrlarda va turli madaniyatlarda korrupsiyaga munosabat. Korrupsionerlarning faoliyat turlari va korrupsiyaning tarqalishi. Korrupsiyaning maqbul darajasi... Bu qanday bo'lishi mumkin?	0,5
2.	Korrupsiyaning ta'riflari. 2017-yil 03.01.dagi "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi O'RQ-419-son qonun bo'yicha ta'rif, BMT Bosh Assambleyasining ta'rifi, ijtimoiy ta'rif.	0,5
3.	Korrupsiyaning har qanday namoyon bo'lishiga nol bardoshlik tamoyili.	0,25
4.	Korrupsiyaga ta'sir qiluvchi omillar. Korrupsiyaning "formulalari".	0,5
5.	Korrupsiya: sabablari va oqibatlari.	0,25
6.	Yuqori korrupsiya sabablari, korrupsiya darajasiga ta'sir qiluvchi obyektiv holatlar, yuqori korrupsiya sabablari haqidagi farazlar.	0,5
7.	Korrupsiyaning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari. Korrupsiya ijobiy oqibatlarga olib kelishi mumkinmi? (D. Xyustonning tadqiqoti).	0,5
8.	Korrupsiya turlari va korrupsion amaliyotlar.	0,5
9.	Yuqori xavfli hududlar: korrupsiya tez-tez uchraydigan joylar korrupsiyaga misollar: tipik va atipik.	0,5
10.	Jamiyatning mansabdor shaxslari/xodimlarining korrupsiyaga qarshi cheklovlarni qabul qilishga roziligi. Kombinatning korrupsiyaga qarshi Siyosati.	0,25
11.	Xalqaro korrupsiya indeksleri. O'zbekistonda korrupsiyaga rioya qilish va uni idrok etish (2021 va 2022-yillardagi qiyosiy natijalar).	0,25
12.	Jamiyat xodimlarining odob-axloq qoidalari kodeksi: "O'zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyatining maqsadi, vazifasi, qadriyatleri.	0,25
13.	ISO 37001: 2016 xalqaro standarti. Korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimlari. Tarkib, umumiy nuqtai nazar.	0,25
14.	ISO 37001: 2016 xalqaro standarti. Atamalar va ta'riflar. Korrupsiyaga qarshi siyosat. Xabardorlik va trening. Nazorat ostidagi tashkilotlar va biznes sheriklar tomonidan korrupsiyaga qarshi nazorat choralarini amalga oshirish.	0,5
15.	ISO 37001:2016 xalqaro standarti. Korrupsiyaga qarshi majburiyatlar. Sovg'alar, minnatdorchilik yelgilari, xayr-ehsonlar va shunga o'xshash imtiyozlar. Shubhalar haqida ma'lumot berish. Tergov va korrupsiyaga qarshi choralar. Rasmiyatchilik soddalashtirish uchun mukofotlar va tovlamachilik.	1
16.	ISO 37001:2016 xalqaro standarti. Korrupsiya xavfini baholashning maqsadi va me'zonlari. Xatarlarni baholash Uslubiyotining asoslari.	1
17.	Amaliy mashg'ulot. "O'zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyatining korrupsiya xavflari xaritasi: aniqlash, baholash, munosabat bildirish choralarini ishlab chiqish.	1
18.	ISO 37001: 2016 xalqaro standarti. Korrupsiyaga qarshi xizmat. Mehnat tartibi. Xodimlarni kompleks tekshirish. Ish natijalariga ko'ra bonuslar. Manfaatlar	0,5

T/r	Mavzular nomlari	Soat soni
	to'qnashuvi. Tashkilot xodimlarining poraxo'rliqi. Moliyaviy nazorat. Moliyaviy bo'lmagan nazorat. Tergov va korrupsiyaga qarshi choralar.	
19.	2017-yil 03.01.dagi "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi O'RB-419-son qonun. Umumiy qoidalar. O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlari.	0,5
20.	Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va hal qilish choralari. Davlat xaridlari sohasida korrupsiyaning oldini olish chora-tadbirlari. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida xabar bergan shaxslarni va ularning yaqin qarindoshlarini himoya qilish.	0,5
	Jami	10

Ishlab chiqdi:

Komplayens xizmati boshlig'i

A. Badalbayev

Kelishildi:

**Xodimlarni malakasini baholash,
o'qitish va rivojlantirish boshqarmasi
boshlig'i**

B. Gulamov



**“O‘zmetkombinat”
aksiyadorlik jamiyati**

KOMPLAYENS XIZMATI

**KORRUPSIYAGA QARSHI KOMPLAYENS
TIZIMIGA OID MA'LUMOTLAR
QO'LLANMASI**



Bekobod -2023y.

MUNDARIJA

I. Korrupsiyaga qarshi komplayens nazorat tizimi haqida ma'lumot.....	3
II. Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat (komplayens) tiziminig huquqiy asoslari.....	4
III. "O'zmetkombinat" Aksiyadorlik Jamiyati komplayens - xizmati.....	6
IV. "O'zmetkombinat" Aksiyadorlik jamiyatida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ishlab chiqilgan ichki idoraviy hujjatlar.....	9
V. "O'zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyatida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Siyosati.....	11
VI. Korrupsiyaga qarshi kurashish atamalari.....	17

I. Korrupsiyaga qarshi komplayens nazorat tizimi haqida ma'lumot

Horijiy amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, bozor iqtisodiyoti qonunlariga asoslangan barcha mamlakatlarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi zamonaviy boshqaruv usullariga muvofiq, samarali faoliyat yuritishni ta'minlovchi eng muhim profiklaktik vositalaridan biri o'z tarkibida korrupsiyaga qarshi "komplayens – nazorat" tizimini joriy etish hisoblanadi.

"Komplayens", "komplayens-nazorat" (compliance control) tushunchalari – rozilik, muvofiqlik va aniq belgilangan qoida, standart hamda ko'rsatmalarga muvofiq faoliyat yuritish degan ma'nolarni beradi.

Korrupsiyaga qarshi "komplayens – nazorat" tizimi – davlat organlari va ho'jalik yurituvchi sub'yektlar, banklar va xususiy sektor faoliyatini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro standartlar, qonun va boshqa me'yoriy – huquqiy hujjatlarga muvofiq tashkil etilishini ta'minlovchi, korrupsiya xavf – xatarlari va manfaatlar to'qnashuvini o'z vaqtida aniqlash hamda ularga chek qo'yish, qonun buzilishi va korrupsiyaga oid huqubuzarliklar haqida xabar berish kabi qator profilaktik choralarni o'zida mujassam etgan samarali tizimdir.

Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat (komplayens) tizimi, tarixi va rivojlanish bosqichlari

"Komplayens – nazorat" tizimi vujudga kelishining dastlabki asoslari 1884-yilda Germaniyada "Baxtsiz hodisalarning oldini olish va sug'urtalsh Assotsiatsiyasi" ning (Accident Prevention & Insurance Association) tashkil etilishi bilan bog'liq.

Korrupsiyaga qarshi "komplayens – nazorat" tizimi esa rasman AQSHda joriy etilgan.

Ushbu tizim dastlab, 1906-yilda AQSHda oziq – ovqat mahsulotlari va dori vositalarini ishlab chiqaruvchi kompaniyalar faoliyatini nazorat qilish federal xizmatining (FDA, Food and Drug Administration) tashkil etilishi natijasida vujudga kelgan.

Bugungi kunda 100 dan ortiq mamlakatlardagi kompaniyalarda korrupsiyaga qarshi "komplayens – nazorat" tizimi joriy etilgan.

Xususan, **AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Turkiya, Singapur, Malayziya, Sloveniya, Qozog'iston** kabi bir qator horijiy davlatlarda ushbu tizim korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi asosiy profiklaktik choralardan biri hisoblanadi.

Fransiyada 800 000 yevrodan ortiq kapitalga ega bo'lgan davlat korxonalarida "komplayens – nazorat" tizimi joriy etilgan bo'lishi shart.

Buyuk Briytaniyaning 1 mlrd. funt sterling kapitali bo'lgan 700 dan ortiq davlat ulushigaa ega korxonalarida tashkil etilgan ushbu tizim turli korrupsiya xavflaridan himoya qiluvchi kompleks choralar sifatida qo'llanilmoqda.

Mamlakat iqtisodiyotida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan kompaniya va Jamiyatlarning tashkil etilishi ular faoliyatida korrupsiyaga qarshi profilaktik choralar joriy etishni zaruriyatga aylantirmoqda.

Shunigdek aksariyat xorijiy mamlakatlarda "komplayens – nazorat" tizimi alohida qonun hujjatlari bilan tartibga solingani ahamiyatga molikdir.

MISOL UCHUN, Sloveniyada mazkur xizmat faoliyati 2014-yil 26-aprelida qabul qilingan (“Sloveniya davlat xoldingi akti to‘g‘risida”gi) alohida qonun bilan tartibga solinadi.

Sloveniya amaliyotida “komplayens – nazorat” xizmatining joriy etilishi davlat sektoriga kadrlarni tanlash jarayonlari maksimal shaffof mexanizmlar asosida o‘tishiga imkon bergan va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berishning mukammal tizimi yaratilgan.

Komplayens – nazorat tiziminig xalqaro tamoyillari

Xalqaro – huquqiy hujjatlarida “komplayens – nazorat” tiziminig quyidagi tamoyillariga ahamiyat qaratiladi:

Shaxsiy namuna – rahbariyat tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi tashabbuslarni qo‘llab – quvvatlash, rag‘batlantirish va bunda Jamoaga shaxsan namuna bo‘lish;

★ **Korrupsiyaga qarshi murosasizlik** – xodimlarda korrupsiyaga nisbatan “0 (nol)” darajadagi murosasizlik madaniyatini shakllantirish;

★ **Ochiqlik va shaffoflik** – faoliyatda ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash;

★ **Xabar berish siyosati** - qonun buzilishi, manfaatlar to‘qnashuvi va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berish tartibi;

★ **Komplayens dasturi** - korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosatini qamrab oluvchi jarayonlar;

★ **Komplayens xodim** - Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali yuritish uchun javobgar shaxs;

★ **Korrupsiyaviy xavf xatarlarni baholash** - faoliyatni turli korrupsiyaviy xavf xatarlardan himoya qilish va ularni baholab borilishini monitoring qilish;

★ **Samaradorlik va malaka oshirish** - xodimlarni korrupsiyaga qarshi madaniyati va bilimini muntazam oshirib borish maqsadida o‘qitish;

★ **Tizimli tahlil** - korrupsiyaga qarshi “komplayens – nazorat” xizmatining samarali faoliyat yuritishini muntazam ravishda baholab, monitoring qilish;

★ **Kontragent** - uchinchi shaxslarning ishonchliligini baholash.

II. Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat (komplayens) tiziminig huquqiy asoslari

Korrupsiyaga qarshi kurashishda alohida ahamiyat kasb etadigan “muvofiqlik tizimi” (komplayens) tushunchasi milliy qonunchiligimizdagi bir qator hujjarlarda aks ettirilgan.

O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida” gi Qonuni. Mazkur qonunda ilk marotaba quyidagi tushunchalarga normativ ta‘rif berilgan:

★ **Korrupsiya** – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shunigdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishidir;

★ **Manfaatlar to‘qnashuvi** – Jamiyat xodimining (bevosita yoki bilvosita) mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta‘sir ko‘rsatayotgan

yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, Jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama – qarshilik yuzaga kelayotgan yoki kelishi mumkin bo'lgan vaziyatdir.

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-5729-son Farmonining “2019-2020yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish Davlat dasturi” ning 21-bandida:

- ★ Ustav jamg‘armasida davlat ulushi bo‘lgan tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarini kuchaytirish maqsadida korrupsiyaga qarshi “komplayens-nazorat” (compliance control) tizimini joriy etish va uning samaradorligini monitoring qilish belgilandi:

- ★ Ushbu hujjatda korrupsiyaga qarshi “komplayens – nazorat” tizimi, birinchi marotaba aynan shu nom bilan aks etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 17-fevralidagi 72-F-son Farmoyishiga ko‘ra, davlat tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi “komplayens – nazorat” tizimini joriy etishning ustuvor vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

- ★ Korrupsiya xavf xatarlarini o‘z vaqtida aniqlash, ularga chek qoyish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart – sharoitlarni bartaraf etish hamda ularni minimum darajaga tushirish;

- ★ Davlat organlari va tashkilotlarining hisobdorligi va faoliyatining shaffofligini oshirish;

- ★ Xodimlar tomonidan kasbiy odob – ahloq qoidalariga rioya etish va xizmat vazifalarini bajarishda manfaatlar to‘qnashuvi haqida xabar berish va ularni hal qilish masalalarini tartibga solish;

- ★ Idoraviy chora – tadbirlarni amalga oshirish ustidan ichki nazorat mexanizmlarini kuchaytirish;

- ★ Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida umume’tirof etilgan xalqaro standartlar va chet - el ijobiy tajribasini joriy etish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyunidagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora – tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6013-son Farmoniga asosan, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi asosiy vazifalaridan biri sifatida:

- ★ Davlat va ho‘jalik organlari, ustav kapitalida davlat ulushi bo‘lgan tashkilotlarda, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi (komplayens – nazorat) hamda korrupsiyaga qarshi kurashishning boshqa xalqaro vositalarini joriy etish va samarali faoliyat ko‘rsatishini tashkillashtirish, zamonaviy usullar va axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida korrupsiyaga qarshi monitoring olib borish, shuningdek, ularning mazkur sohadagi faoliyati bo‘yicha reytingini tuzish belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyulidagi “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora – tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-6257-son Farmonida, davlat hokimiyati organlari va

yirik ho‘jalik yurituvchi sub‘yektlarda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari yo‘lga qo‘yilganligi qayd etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyulidagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora – tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5177-son Qarori bilan 2021- yil 1-oktyabridan boshlab barcha davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarda mavjud shtat birliklari doirasida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati yo‘lga qo‘yilishi belgilandi.

Shuningdek, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari sifatida korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va oldini olish, ularning sabab va shart – sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish choralarini ko‘rish uchun ma’sul ekanligi belgilandi.

Bunda, davlat organlari va tashkilotlari korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari rahbarlarini lavozimga tayinlash va ozod etish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi majburiy tartibda kelishish tartibi joriy etildi.

Agentlik tomonidan tashkilotlarda joriy qilinayotgan korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyatini tartibga solishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining “Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash to‘g‘risida” gi buyrig‘i qabul qilindi.

III. “O‘zmetkombinat” Aksiyadorlik Jamiyati komplayens - xizmati

“O‘zbekiston metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati Kuzatuv kengashining 2022-yil 15-mart 54-son bayonnomasi bilan 4ta shtat birligidan iborat komplayens xizmati tashkil qilingan.

Komplayens xizmati - Jamiyat faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi halqaro standartlar, qonun va me‘yoriy – huquqiy hujjatlariga muvofiq tashkil etiladigan, korrupsiya xavf- xatarlari, manfaatlar to‘qnashuvini o‘z vaqtida aniqlash hamda chek qo‘yish, qonun buzilishi va huquqbuzarliklar haqida xabar berishni o‘zida mujassam etgan mustaqil tarkibiy tuzilma hisoblanadi.

Komplayens xizmati korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash, oldini olish, ularning sabab va shart – sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish choralarini ko‘rish uchun ma’sul hisoblanadi.

Komplayens xizmati boshlig‘ini lavozimiga tayinlash va lavozimdan ozod etish etish masalasi “O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyati Kuzatuv kengashi tomonidan ko‘rib chiqiladi hamda bu to‘g‘risida Boshqaruv raisi - bosh direktorining buyrug‘i bilan qabul qilinadi.

Komplayens xizmatining asosiy maqsadi Jamiyatda “Korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimlari – Foydalanish uchun talablar va tavsiyalar” ISO 37001:2016 xalqaro standarti talablariga javob beruvchi majmuy tizimni, xususan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini joriy etish, korrupsiyaviy holatlarni barvaqt aniqlash, baholash hamda

ularning sabab va shart – sharoitlarini bartaraf etish, korrupsiyaviy harakatlar sodir etilishini oldini olish, Jamiyat faoliyati ochiqligi hamda shaffofligini ta'minlash, Jamiyat mulki va moddiy boyliklari to'liq bo'lishini tashkil qilish hamda Kuzatuv kengashini aniq ma'lumot bilan ta'minlash hisoblanadi.

Bundan tashqari, Komplayens xizmatining asosiy vazifalari va maqsadlari quyidagilardan iborat:

- ★ tashqi va ichki me'yoriy hujjatlar talablariga va eng sara xalqaro komplayens amaliyotlariga muvofiqlikni ta'minlash;

- ★ komplayens sohasidagi qonunlar, qoidalar va standartlarga rioya etilishini o'rganish, shu jumladan, qonun hujjatlariga muvofiq korrupsiyani oldini olishga va manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etishga qaratilgan chora tadbirlarning amalga oshirilishini o'rganish;

- ★ biznes uchun ijobiy qo'shilgan qiymat muvofiqligiga erishish;

- ★ komplayens xavflarini boshqarish metodologiyasini ishlab chiqish va komplayens funksiyasini Jamiyat amaliyotiga moslashtirish;

- ★ aniqlash va baholash, komplayens xavflariga javob choralarini belgilash;

- ★ komplayens xavflarini boshqarish bo'yicha Jamiyat tarkibiy bo'linmalari ishini muvofiqlashtirish;

- ★ uch bosqichli himoya (“3LoD” - “3 Lines of Defense”) modelini amalda qo'llash va tadbiq qilish;

- ★ korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to'qnashuvini hal qilish, ishbilarmonlik odob – ahloqini mustahkamlash va komplayens madaniyatini rivojlantirish sohasidagi talablarning bajarilishini monitoring va nazorat qilish;

- ★ komplayens masalalari bo'yicha axborot berish, treninglar va tushuntirish ishlarini olib borish.

Komplayens xizmati o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalar va majburiyatlarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

- ★ Jamiyatning boshqa tarkibiy bo'linmalaridan har qanday ma'lumotni, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda, bo'linmalar faoliyatini tartibga soluvchi qoidalar va yo'riqnomalarni, hujjatlar, hisobotlar, ma'lumotlar, ma'lumotnomalar, hisob-kitoblar, xulosalar, tushuntirishlarni shu jumladan, Komplayens xizmatiga yuklangan vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan tijorat va rasmiy sirlardan tashkil topgan boshqa materiallarni belgilangan muddatlarda so'rash va olish;

- ★ So'ralgan ma'lumotlarning o'z vaqtida taqdim etilishini nazorat qilish. Komplayens xizmati tomonidan belgilangan muddatda taqdim etilmasa, taqdim etish asossiz kechiktirilsa va to'liq taqdim etilmagan taqdirda, bunday bo'linmalarning rahbarlari O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda intizomiy javobgarlikka tortiladilar;

- ★ Ixtisoslashgan tuzilmalarning rahbarlaridan har qanday darajadagi “xavf egalarini” tayinlashni talab qilish va xavflar xaritasini va reestrini dolzarb holatda saqlashlari bo'yicha faoliyatini nazorat qilish;

★ Korrupsiyaga qarshi kurash, monopoliyaga qarshi siyosat, xavflarni boshqarish siyosati, manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish va Jamiyatning tarkibiy bo‘linmalarida boshqa ichki (mahalliy) normativ hujjatlarga rioya etilishini tekshirish;

★ Komplayens xizmati zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun kombinat rahbariyati tomonidan o‘tkaziladigan yig‘ilishlarda (shu jumladan Boshqaruv majlislarida) ishtirok etish va qatnashish;

★ Korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi (zarur bo‘lganda, Korporativ xavfsizlik va resurslarni himoya qilish departamenti bilan birgalikda) bo‘yicha ichki tekshiruvni tashkilshtirish va monitoring qilish. Xizmat tekshiruvlari materiallarini to‘siqsiz va to‘liq olish;

★ Komplayens xizmatining rejalashtirilgan tadbirlarini va rahbariyatni individual ko‘rsatmalarni amalga oshirishda tegishli rahbarlar bilan kelishilgan holda boshqa bo‘linmalar xodimlarini jalb qilish;

★ Jamiyat rahbariyatidan Komplayens xizmati boshlig‘iga yuklangan vazifalarni bajarish maqsadida zarur bo‘lgan tashkiliy va texnik shart-sharoitlarni ta‘minlashni talab qilish;

★ Komplayens xizmati vakolatlari doirasida aniqlangan barcha kamchiliklar to‘g‘risida Jamiyat rahbariyati, odob ahloq komissiyasi va korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligini xabardor qilish va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar kiritish;

★ Xavflarni boshqarish va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro standartlarda belgilangan mustaqillik va Komplayens xizmati faoliyatiga aralashmaslik tamoyillariga rioya qilishni talab qilish;

★ Jamiyat nomidan o‘z vakolatlari doirasida turli forumlar, konferensiyalar, boshqa tashkilot va muassasalarda vakillik qilish;

★ O‘ziga yuklangan vazifalar va funksiyalar, Jamiyat Kuzatuv kengashi va boshqa boshqaruv organlari topshiriqlarini sifatli va o‘z vaqtida bajarilishini ta‘minlash;

★ Jamiyatda komplayens tizimining ishlashini tartibga soluvchi Kodekslar, Siyosatlar va boshqa hujjatlarni yangilab turish;

★ Komplayens nazorat qilish natijalari bo‘yicha hujjatlarda belgilangan ma‘lumotlarning ob‘yektivligi, xolisligi va ishonchliligini ta‘minlash;

★ Tijorat siri va shaxsiy ma‘lumotlar bilan bog‘liq ma‘lumotlar bilan ishlashni tartibga soluvchi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Jamiyatning me‘yoriy hujjatlari talablariga rioya etish.

IV. “O‘zmetkombinat” Aksiyadorlik jamiyatida korrupsiyaga qarshi yo‘nalishda ishlab chiqilgan ichki idoraviy hujjatlar

“O‘zmetkombinat” Aksiyadorlik jamiyatida Komplayens xizmati tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida quyidagi ichki idoraviy hujjatlar qabul qilindi va amaliyotga tatbiq etilmoqda:

★ **“O‘zmetkombinat aksiyadorlik jamiyati korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Siyosati** (Siyosat “O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyati, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalarida hallolik siyosatini ta‘minlash, ya‘ni xodimlar va umman

jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyatini shakllantirish maqsadida yuksak hulq – atvor standartlariga muvofiqlik, shuningdek lavozim (xizmat) majburiyatlarini bajarish chogʻida Kombinat xodimlari tomonidan korrupsiyaviy harakatlar sodir etilishiga yoʻl qoʻymaslikka doir pozitsiyasini ifodalaydi. Jamiyat Siyosatni oʻz faoliyati spetsifikasi asosida ishlab chiqqan boʻlib, oʻziga hos va qoldiq korrupsiyaviy xavf – xatar va mavjud resurslar asosida korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha mexanizmlarini ishlab chiqmoqda va amalda joriy etmoqda);

★ **“Oʻzmetkombinat” aksiyadorlik jamiyati Kuzatuv kengashi huzuridagi Komplayens – xizmati NIZOMI** (Komplayens xizmatining vazifasi Jamiyat boshqaruvi organlariga komplayens funksiyasini amalga oshirish pozitsiyasi bilan strategik maqsadlarga erishishda yordam berish, yaʼni belgilangan tashqi va ichki qoidalar, hujjatlarga rioya qilmasligi natijasida Jamiyatga salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin boʻlgan vaziyatlarni bartaraf etishdir);

★ **“Oʻzmetkombinat” aksiyadorlik jamiyati, uning hududiy va tarkibiy boʻlinmalariga aloqa kanallari orqali korrupsion xatti – harakatlar toʻgʻrisida kelib tushgan xabarlarini qabul qilish va koʻrib chiqish Reglamenti** (Reglament “Oʻzmetkombinat” Aksiyadorlik jamiyatida, uning hududiy va tarkibiy boʻlinmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar toʻqnashuvini aniqlash va tegishli chora tadbirlarning samaradorligini oshirish maqsadida ishlab chiqilgan);

★ **“Oʻzmetkombinat” aksiyadorlik jamiyati, uning hududiy va tarkibiy boʻlinmalarida manfaatlar toʻqnashuvini boshqarish boʻyicha Nizom** (“Oʻzmetkombinat” Aksiyadorlik jamiyatida, uning hududiy va tarkibiy boʻlinmalarida manfaatlar toʻqnashuvini aniqlash, uning oldini olish va tartibga solish amaliyotni belgilaydi);

★ **“Oʻzmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatida, uning hududiy va tarkibiy boʻlinmalariga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish boʻyicha Yoʻriqnoma** (Yoʻriqnoma “Oʻzmetkombinat” Aksiyadorlik jamiyatida, uning hududiy va tarkibiy boʻlinmalariga ishga qabul qilishda nomzodlar tekshiruvini oʻtkazishning tamoyillari, talablari, tartibi va muddatlarini belgilovchi ichki hujjat hisoblanadi);

★ **“Oʻzmetkombinat” aksiyadorlik jamiyati ishchi - xodimlari odob – ahloqining qoidalari** (“Oʻzmetkombinat” Aksiyadorlik jamiyati ishchi - xodimlari odob – ahloqining qoidalari ishchi – xodimlarining kasbiy madaniyati, ish faoliyati davomida hamda ishdan tashqari vaqtda odob – ahloqi, tashqi koʻrinishi uslubining namunaviy qoidalarini belgilaydi. Odob – ahloq qoidalari kombinat faoliyatida yuksak kasbiy madaniyatni shakllantirish, jamoatchilik ongida kombinatga boʻlgan hurmat va ishonchni oshirish hamda kombinat ishchi xodimlarining ahloq qoidalari zid boʻlgan xatti – harakatlarning oldini olishga qaratilgan);

★ **“Oʻzmetkombinat aksiyadorlik jamiyati, uning hududiy va tarkibiy boʻlinmalarida xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida oʻqitilishini tashkil qilish boʻyicha Yoʻriqnoma** (Jamiyat, uning hududiy va tarkibiy boʻlinmalari xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari boʻyicha oʻqitilishini tashkil qilish boʻyicha tavsiya va qoʻllanmalarni belgilab beradi. Yoʻriqnoma

korrupsiyaviy harakatlarni oldini olish va ularni sodir qilishga xizmat qiladigan sabablarni bartaraf etish, xodimlarning huquqiy ongini oshirish va ularni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Kombinatning boshqa ichki hujjatlariga qat’iy rioya qilish ruhida tarbiyalash. Jamiyat xodimlarini etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida O‘qitish dasturlari va materiallari O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va ushbu Yo‘riqnomaga muvofiq ishlab chiqiladi);

★ **O‘zmetkombinat aksiyadorlik jamiyatida, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha Nizom** (Nizom Jamiyat, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat yuritishi va korrupsiyaga qarshi tadbirlarni amalga oshirishi to‘g‘risidagi hisobdorlikni shakllantirish tartibini belgilaydi. Jamiyatning hududiy va tarkibiy bo‘linmalari hisobotni taqdim qilish uchun ma’suliyat hududiy va tarkibiy bo‘linmalaridagi korrupsiyaga qarshi ichki nazorat uchun ma’sul xodim zimmasida bo‘ladi);

★ **“O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatida, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalarida Korrupsiyaga qarshi tartib taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti** (Uslubiyot Jamiyatda, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalarining ichki normativ hujjati hisoblanadi va kombinatda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qabul qilingan ichki normativ hujjatlar bajarilishini monitoring va nazorat qilish tartibi hamda standartlarini belgilaydi. Mazkur Uslubiyot O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, Kombinatning ichki normativ hujjatlari talablariga muvofiq, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ilg‘or halqaro amaliyotni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan);

★ **“O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatida, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalari xodimlarining korrupsiyaviy xatti – harakatlari va odob – ahloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha Reglament** (Reglament Jamiyat xodimlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonunchiligi yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki idoraviy hujjatlarini buzilishiga nisbatan tekshiruvini o‘tkazishni belgilovchi ichki idoraviy hujjat hisoblanadi. Mazkur Reglament quyidagi maqsadlarda ishlab chiqilgan: Jamiyatda Xizmat tekshiruvi o‘tkazishning yagona yondashuvini belgilash; xizmat tekshiruvi o‘tkazish jarayoni va natijalarini hujjatlashtirish talablarini belgilash; qoidabuzarliklar sodir etilishi, unga ziyon yetkazishga olib keladigan sabab va shartlarni aniqlash va bartaraf qilish; kombinat va uning xodimlarining qo‘llanilayotgan qonunchilik talablarini buzganlik uchun javobgarlikka tortilishi xavfini kamaytirish; kombinatda qabul qilinayotgan ichki hujjatlar va nazorat taomillaridagi kamchiliklarni aniqlash va kelgusidagi qoidabuzarliklarga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida ularni bartaraf qilish bo‘yicha tavsiyalarni ishlab chiqish);

★ **“O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatida kontragentlarni tekshirishga oid Yo‘riqnoma** (Yo‘riqnoma Jamiyat, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalari tomonidan xarid qilish tartib – taomillari, shu jumladan to‘g‘ridan - to‘g‘ri shartnoma tuzishda ishtirokchilarni majburiy tekshirishning asosiy talablari, tartibi va

usullarini belgilaydi. Xarid jarayonlari ishtirokchilarini tekshirishning maqsadlari quyidagilardan iborat: kombinat xodimlarining manfaatlar to'qnashuvi va shaxsiy manfaatdorligi bilan bog'liq bo'gan xatarlarni kamaytirish; insofsiz ijrochi bilan shartnoma tuzish xatarini kamaytirish; xarid jarayoni ishtirokchisining shartnomada belgilangan tovarlarni yetkazib berish va xizmat ko'rsatish, ishlarni bajarish imkoniyatini baholash; kontragent bilan shartnoma tuzish to'g'risidagi qarorni tegishli darajada ehtiyotkorlik bilan qabul qilish).

V. "O'zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyatida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Siyosati

Korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati tizimi tamoyillar asosida tashkil etiladi va faoliyat yuritadi:

Qonuniylik – Kombinatdagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora – tadbirlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq davlat organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ilg'or dunyo tajribasi, shuningdek Kombinat ichki hujjatlariga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshiriladi;

Korrupsiyaga nisbatan muhosasizlik (toqatsizlik) – Kombinat o'z faoliyatining barcha sohalarida korrupsiyaning har qanday shakllari va ko'rinishlariga muhosasiz munosabatda bo'ladi. Kombinat xodimlariga korrupsiyaviy xavf – xatar kelib chiqishi mumkin bo'lgan faoliyatida bevosita yoki bilvosita ishtirok etishi qat'iy man etiladi;

Ochiqlik va shaffoflik – Kombinat xodimlari va kontragentlari hamda keng jamoatchilikni Kombinatda qabul qilingan va amalga oshirilayotgan chora tadbirlar to'g'risida xabardor qilish (maxfiylik va xizmat siri to'g'risidagi qonun hujjatlari talablarini hisobga olgan holda);

Korrupsiyaga qarshi amalga oshirilayotgan chora – tadbirlarining preventiv – xususiyatga ega bo'lishi, tizimliliigi va yaxlitligi – korrupsiyaning oldini olish, korrupsiyaviy harakatlarning sodir etilishiga xizmat qiluvchi sabab va shart – sharoitlar hamda korrupsiyaviy xatarlarni bartaraf etishga qaratilgan chora – tadbirlarni amalga oshirishning ustuvorligi. Korrupsiyaga qarshi joriy etilayotgan chora – tadbirlar va tartib – taomillar aniqlangan xavf – xatarlar darajasiga mos kelishi va Kombinatning barcha funksiyalari va yo'nalishlarini qamrab olgan korrupsiyaga qarshi tizimiga birlashtirilishi;

Korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning muqarrarligi – korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarlikni sodir etgan Kombinat xodimlari o'zining mavqei va egallab turgan lavozimidan qat'iy nazar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Kombinatning ichki hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi;

to'gridan to'g'ri rahbariyatga murojaat qilish - Kombinatning har bir xodimi korrupsiyaviy harakat sodir etilganligiga doir ishonchli va asosli ma'lumotlar mavjud bo'lganda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va kombinatning ichki boshqarma yoki uning tasarrufidagi muassa rahbari, Komplayens xizmatiga yoki kombinat rahbariga hech qanday to'siqsiz murojaat qilishi mumkin;

fuqarolik jamiyati vakillari bilan o‘zaro hamkorlik – kombinat o‘ziga yuklatilgan funksiyalarni bajarishda ularning faoliyati ustidan mustaqil va xolis nazoratni amalga oshirish maqsadida fuqarolik jamiyati vakillarni jalb qiladi;

monitoring, tahlil va baholash – kombinat davriy asosda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi faoliyati monitoring va tahlilini amalga oshiradi, shuningdek uning samaradorlik va natijakorlik ko‘rsatkichlarni baholaydi;

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini doimiy ravishda takomillashtirish – korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini monitoring va nazorat qilish hamda korrupsiyaviy xavf – xatarlarni bartaraf etish maqsadida kombinatda korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini to‘xtovsiz ravishda yaxshilash choralari ko‘riladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishining asosiy yo‘nalishlari.

Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish:

1. Kombinatlarning xodimlari o‘z lavozim majburiyatlarini halol va vijdonan bajarishi, o‘z mansab va xizmat mavqeidan va kombinat tasarrufidagi mol – mulklardan shaxsiy manfaatdorlik yo‘lida foydalanmasligi va manfaatlar to‘qnashuviga olib kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatlardan saqlanishlari lozim.

2. Kombinatlarning xodimlari ishga qabul qilinayotganda, lavozimi ko‘tarilayotganda va rotasiya qilinayotganda har yili va tegishli vaziyatlar shart – sharoitlar yuzaga kelishiga qarab manfaatlar to‘qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan shaxsiy manfaatdorligiga doir axborotni ochiqlashi lozim.

3. Kombinatlarning xodimlari tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi va uni tartibga solishga doir axborotni ochiqlash jarayoni Kombinatlarda manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish tartibi to‘g‘risida ichki idoraviy hujjatda belgilab qo‘yiladi.

4. Manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash uchun samarali nazorat tartib – taomillari Kombinatlarning xodimlarining uchinchi shaxslar bilan o‘zaro aloqasi ro‘y beradigan barcha funksiyalarga joriy etilishi lozim (masalan, tanlov savdolarini tashkil qilish, reytinglarini hisoblash va h.k.).

Ish yuzasidan sovg‘alar va mehmondo‘stlik belgilarini qabul qilish.

5. Kombinatlarning xodimlari o‘z lavozim majburiyatlarini bajarishi doirasida jismoniy va yuridik shaxslardan sovg‘alar mehmondo‘stlik belgilari, jumladan qarz, kafolatlar, kafillik, mukofot, moddiy yordam, naqd pulsiz va naqd mablag‘lari yoki ularning ekvivalentlari, qimmatbaho qog‘ozlar, kpitovalyuta, boshqa moddiy mulkka yoki xizmatlar ko‘rinishidagi rag‘bat vositalarini olishi taqiqlanadi.

Bunda, konferensiyalar, seminarlar va turli shu kabi uchrashuvlarda taqdim etiladigan umumiy qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravaridan oshmaydigan buyumlar bundan istisno hisoblanadi.

6. Kombinatlarda ichki korrupsiyaning oldini olish maqsadida xodimlar o‘rtasida xizmat majburiyatlarini qabul qilish bilan bog‘liq deb e‘tirof etilgan sovg‘alarni berishda quyidagilarga rioya qilinadi:

★ sovg‘a oluvchi uchun manfaatlar to‘qnashuvi vaziyatini keltirib chiqarmasligi va sovg‘a beruvchi oldida biror – bir majburiyatlarni yuzaga keltirmasligi lozim;

- ★ sovg'a ochiq – oydin beriladi, yashirin berilmaydi;
- ★ sovg'ani faqat umume'tirof etilgan bayramlar (tavallud ayomi, farzand tug'ilishi, Vatan himoyachilari kuni, Xalqaro xotin qizlar kuni, Yangi yil va h.k.) munosabati bilan berishga ruxsat etiladi;
- ★ sovg'a Kombinatning kamida uchta xodimi ishtirokida berilishi lozim;
- ★ sovg'alar berish chog'ida sovg'a berish uchun sabab bo'lgan voqea hodisalar aniq bayon etiladi;
- ★ sovg'aning umumiy qiymati (barcha soliq va yig'img'lar bilan birga) bazaviy hisoblash miqdorining 5 (besh) barobaridan oshmasligi lozim.

7. Kombinatning bir xodimi ikkinchi xodimga sovg'a olish uchun sarflaydigan summa miqdori har qanday holatda bazaviy hisoblash miqdorining 1 (bir) barobaridan oshmasligi lozim.

Kombinat nomidan xalqaro konferensiyalar, simpoziumlar va boshqa ish yuzasidan (xizmat) uchrashuvlarida sovg'alar berish rahbar buyrug'iga ko'ra muvofiq amalga oshiriladi.

Sovg'a berish, uni qabul qilishning qonunligiga shubha tug'ilgan taqdirda Kombinat xodimi Komplayens ximati bo'limiga maslahat so'rab murojaat qilishi lozim.

Kombinat xodimlarining ish faoliyati yuzasidan o'tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etish.

8. Kombinat xodimlarining xalqaro va boshqa tashkilotlar taklifiga ko'ra ish faoliyati yuzasidan o'tkaziladigan tadbirlari (ko'rgazmalar, seminarlar, konferensiyalar va h.k.) da ishtirok etishiga quyidagi shartlarga rioya qilgan taqdirda ruxsat etiladi:

- ★ Tadbir O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Siyosat tamoyillari va talablari hamda Kombinatning boshqa hujjatlariga mos kelsa;
- ★ Tadbir Kombinat xodimlari tomonidan u yoki bu qarorlar qabul qilinishiga ta'sir qilmasligi, biror bir noqonuniy afzalliklarni qo'lga kiritishni (masalan, buyurtmachilarga tadbirni o'tkazayotgan loyiha tadqiqot tashkilotlariga murojaat qilishin tavsiya qilish) ko'zalagan yashirin noqonuniy mukofatlash maqsadi bo'lmasligi lozim;
- ★ Bunday tadbirda ishtirok etishga doir ma'lumotlar oshkor qilingan taqdirda Kombinat va taklifni qabul qiluvchi yoki taklif etayotgan tomon mavqei uchun xatar tug'dirmasligi lozim;
- ★ Tadbir umume'tirof etilgan ilmiy va ishbilarmonlik amaliyotiga mos kelishi hamda ko'ngilochar mazmunidagi xususiyat kasb etmasligi lozim;
- ★ Tadbir mohiyati va qiymatiga ko'ra o'rinli bo'lishi, haddan ziyod hashamatli, qimmat, gayrioddiy bo'lmasligi va tez – tez takrorlanib turmasligi lozim.

9. Agar ishbilarmonlik tadbirlari (seminar, simpozium, davra suhbatlari va h.k.) tashkilotchisi Kombinat o'zi bo'lsa, u holda bunday ishbilarmonlik tadbiri Siyosatda qayd etilgan talablarga mos kelishi lozim.

Kadrlar bilan bog'liq jarayonni tartibga solish (xodimlarni tanlash, lavozimini oshirish, moddiy rag'batlantirish)

10. Kombinat xodimlarini tanlash, attestatsiyadan o'tkazish va ularning faoliyatini baholash, jumladan mukofot, ustamalar va rag'batlantirishning boshqa turlarini

amalga oshirish jarayoni barcha xodimlar uchun shaffof, teng huquqli va holis hisoblanib, Siyosatning asosiy tamoyillari va talablariga mos kelishi lozim.

11. Nomzodlarni Kombinatga tanlash va tayinlash jarayoni nomzodlarni Kombinatga qabul qilish uchun tekshirish bo'yicha qo'llanma va kombinatning boshqa ichki hujjatlariga, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish tartibiga muvofiq kompleks ravishda tekshirish bilan amalga oshiriladi.

12. Kombinatda xodimlarga oid masalalarda qaror qabul qiluvchi xodimlarning lavozimini oshirganda, lavozimga tayinlanganda, kadrlar zaxirasiga qo'shganda va h.k.larda nomzod (xodim) larga har qanday asossiz imtiyozlar taqdim etishi taqiqlanadi.

13. Bo'sh lavozimlarga saralab olish, egalanayotgan lavozimga qo'yiladigan talablarga muvofiq tanlov asosida yoki boshqa usul yordamida amalga oshirilishi lozim. Bunda nomzodning malakasi, kasbiy va ilmiy yutuqlariga asosiy e'tibor qaratiladi.

14. Kombinatda xodimlar faoliyati samaradorligining muhim ko'rsatkichlarini baholash tartibi va mezonlari ishlab chiqilishi va xodimlar uning asosida rag'batlantirilishi lozim. Mazkur ko'rsatkichlar xolis, shaffof va kombinat xodimlari tanishib chiqishlari uchun ochiq bo'lishi lozim.

✓ **Tekshiruvlar o'tkazish va kombinat tarkibiy bo'linmalari faoliyatini o'rganish**

15. Turli tekshiruvlar, o'rganishlar, monitoring o'tkazishda Kombinat xodimlari:

- ★ Manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishiga yo'l qo'ymasligi;
- ★ Tekshiruv, o'rganishlar, monitoring ob'yekti tekshiruvi, monitoringni yakka o'zi amalga oshirmasligi;
- ★ Tekshiruv, o'rganishlar, monitoring ob'yektiga tashrif buyuruvchilar yoki ularning vakillari Kombinat, uning hududiy va tarkibiy bo'linmalariga shaxsan tashrif buyurganda ular bilan yolg'iz qolmasligi;
- ★ yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan qoidabuzarliklarni soxtalashtirish maqsadida tekshiruv, o'rganish o'tkash, O'zbekiston Respublikasi qonunchilik normalarini noto'g'ri talqin qilinmasligi, tekshiralayotgan ob'yekt xodimlarini aniqlagan faktlarni huquqni muhofaza qilish yoki boshqa davlar organlariga topshirish bilan qo'rqitmasligi;
- ★ tekshiruv, o'rganish, monitoring ob'yekti xodimlariga tahdid qilmasligi;
- ★ hujjatlarni so'rab olish va tekshiruv, o'rganish, monitoring qilish predmetiga kirmaydigan masalalar bo'yicha qiziqmasligi lozim;
- ★ tekshiruv, o'rganish, monitoring qilish davomida aniqlangan har bir qoida - buzarlikning qonuniy va professional baholanishini ta'minlashi;
- ★ qoidabuzarliklarning video yoki fotoqaydini amalga oshirishi (o'rni kelganda), Kombinat tomonidan foydalaniladigan axborot tizimlariga qoidabuzarliklarga oid ma'lumotlarni kirirtish;
- ★ agar tekshiruv, o'rganish, monitoring ob'yekti vakillari Kombinat xodimiga aniqlangan qoidabuzarliklarni yashirish maqsadida pora yoki har qanday moddiy boyliklar yoki xizmatlar taqdim etayotgan bo'lsa, bu haqida tekshiruv bo'yicha ishchi guruh rahbariga va Kombinatdagi korrupsiyaga qarshi kurashish Komplayens xizmatiga zudlik bilan xabar berishi;

★ tekshiruv, o'rganish, monitoring ob'yekti vakillariga Kombinat xodimlarining hulq – atvor tamoyillariga muvofiq xolis munosabatda bo'lishi shart;

16. Kombinat tomonidan o'tkazilgan tekshiruvlar, o'rganishlar va monitoring natijalari yuzasidan kelib tushgan e'tirozlarni ko'rib chiqish uchun komissiya tashkil etiladi.

Vakolatli davlat organlari, kontragentlar va uchinchi shaxslar bilan shaffof va samarali o'zaro hamkorlikni ta'minlash.

17. Kombinat korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosat tamoyillari va talablari hamda O'zbekiston Respublikasi qonunhlik normalariga zid har qanday to'lovlarni yoki harakatlarni amalga oshirish uchun yetkazib beruvchilar, pudratchilar va boshqa uchinchi shaxslarni jalb qilmaydi.

18. Kontragentlar bilan munosabatlarda Kombinat qonuniylik va shaffoflik tamoyillariga amal qiladi.

19. Kombinatda obyektiv mezonlardan foydalanishga asoslangan yetkazib beruvchilar, pudratchilar va boshqa kontragentlarni tanlashning halol, ochiq va shaffof jarayoni, shuningdek sotib olinayotgan Tovar va xizmatlar qiymatini belgilashning shaffof tartibi joriy etilib, ular O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Kombinatning ichki hujjatlari bilan birgalikda tartibga solinadi.

20. Kontragentlar bilan hamkorlikda Kombinat:

★ Kombinatda kontragentlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnoma va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq potensial kontragentning ishonchligi, jumladan u o'tmishda korrupsiyaviy faoliyatga jalb qilingan yoki qilinmaganligi, Kombinat xodimlari bilan manfaatlar to'qnashuvi mavjud yoki mavjud emasligini tekshiradi;

★ Potensial kontragent, jumladan xarid tartib taomillari g'olibi, u bilan shartnoma matniga maxsus korrupsiyaga qarshi shartlarni qo'shish orqali o'zining korrupsiyaga qarshi tamoyil va talablari haqida xabardor qiladi.

21. Vakolatli davlat organlari bilan o'zaro hamkorlik qilishda (masalan, litsenziya berish, ixtisoslashtirilgan kengashlarda ishtirok etish, turli hujjatlar, ob'yektlarni kelishishda va h.k) Kombinat hujjatlarni ko'rib chiqishning shaffofligi va xolisligini ta'minlaydi hamda zarur hollarda mazkur davlat organlari tomonidan salbiy va boshqa xulosalarga kelish sabablari xususida qo'shimcha ma'lumotlarni talab qiladi.

Xayriya va homiylik faoiyatining shaffof va samarali jarayonini ta'minlash

22. Kombinat qonunchilik bilan belgilangan holatlarda xayriya va homiylik yordamini qabul qilishi mumkin. Bunday yordamni olishda manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yimaslik, mablag'larni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi yoki shartnomada ko'rsatilgan maqsadlarga samarali va maqsadli yo'naltirilishini ta'minlash, shuningdek xayriya va homiylik faoliyatiga doir axborotni Kombinatning Internet tarmog'idagi rasmiy veb – saytida ochiqlash bo'yicha barcha tadbirlar amalga oshiriladi.

23. Kombinat tomonidan qabul qilinayotgan xayriya yoki homiylik yordami yashirin mukofot tarzida bo‘lmasligi va Kombinatning alohida xodimlari tomonidan xayriya yoki homiy, uning yaqin qarindoshlari, ularga aloqador shaxslar, shuningdek xayriya qiluvchi yoki homiyda ularga nisbatan shaxsiy manfaaatdorligi bo‘lgan shaxslar foydasiga qaror qabul qilinishiga ta’sir ko‘rsatmasligi lozim.

24. Kombinat tomonidan xayriya yoki homiylik yordamini olishda quyidagi talablar bajarilishi lozim:

- ★ Xayriya qiluvchi yoki homiy bilan albatta shartnoma tuzish va unda xayriya yoki homiylik yordamini olish va undan foydalanish maqsadlari, yordam shakllari, yordamning pul ifodasidagi summasi, xayriya qiluvchi yoki homiy oldida kelib tushgan yordamdan maqsadli foydalanish to‘g‘risida hisob berish usuli belgilab qo‘yilishi lozim;

- ★ Bunday shartnomaga korrupsiyaga qarshi shartlarni kiritish;

- ★ Kombinatning internet tarmog‘idagi rasmiy veb saytida olingan xayriya yoki homiylik yordamiga doir axborotni joylashtirish.

Ichki hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasi

24. Ichki hujjatlarning huquqiy ekspertizasini o‘tkazishda Kombinatning yuridik xizmati tomonidan korrupsiyaviy harakatlarini amalga oshirish uchun imkoniyat yaratuvchi korrupsiyaviy omillar mavjudligi va ularni hujjatlardan kelib chiqarib tashlash maqsadida ekspertiza o‘tkaziladi.

Kombinat faoliyati sohasiga yangi texnologiyalarni joriy etish

25. Korrupsiyaviy xavf xatarlarni minimallashtirish maqsadida Kombinat xodimlari o‘z funksiyalari va lavozim majburiyatlarini axborot texnologiyalardan foydalangan holda amalga oshiradi.

26. Davlat xaridlari doirasida tanlov savdolarini o‘tkazishda Kombinat xodimlari axborot texnologiyalaridan foydalaniladi va tanlov savdolari ishtirokchilari bilan o‘zaro aloqani elektron shaklda onlayn rejimida boshqa elektron tizimlar bilan integratsiya qilish imkoniyatini qo‘llagan holda amalga oshiriladi.

Kombinatdagi faoliyatni videoqayd qilish va uning translyatsiyasi

27. Kombinat binolarida xodimlar faoliyatini nazorat qilish maqsadida audio va videoyozuv kameralari o‘rnatilib, ulardagi yozuvlar kombinatning ma’sul xodimlari tomonidan ko‘rib boriladi.

28. Kombinatning internet tarmog‘idagi rasmiy veb saytlarida korrupsiya xatari yuqori bo‘lgan ayrim jarayonlarining onlayn translyatsiyasi joylashtiriladi (xususan, xodimlar bilan suhbat o‘tkazish, ularni testdan o‘tkazish, komissiyalar yig‘ilishlari va h.k.).

VI. Korrupsiyaga qarshi kurashish atamalari

Aloqador shaxslar – Jamiyat xodimi bilan tijorat tashkilotlarining ustav kapitalida ishtirok etadigan shaxslar, aksiyalari Respublika fond birjasida ommaviy muomalada

bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarining besh foizidan kam bo'lgan miqdoridagi aksiyaga ega ekanligi bundan mustasno.

Davlat organlari va muassasalari - davlat hokimiyati, Boshqaruvi organlari, fuqarolarning o'z – o'zini boshqarish organlari, jumladan vazirliklar, xizmatlar, agentliklar, markazlar va boshqa idoralar hamda ularning tarkibiy (hududiy) bo'linmalari.

Ish faoliyati yuzasidan mehmondo'stlik belgilari – uchinchi shaxslarning hamkorlik o'rnatish va/yoki uni qo'llab quvvatlash bilan bog'liq bo'lgan, Jamiyat xodimlarining sodiqligini oshirishga qaratilgan, Jamiyat xodimlari manfaatlarini yo'lidagi harajatlari, jumladan uchinchi shaxslarning ovqatlanishi, ish faoliyati yuzasidan tushliklar tashkil etilishi bilan bog'liq harajatlari, transport harajatlari, yashash, ko'ngilochar tadbirlar, jumladan sayohat dasturlari bilan bog'liq harajatlari va h.k.

Kontragent – Jamiyat bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishgan (mehnat munosabatlari bundan mustasno) har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs.

Korrupsiya - shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga hilof ravishda foydalanishi, shuningdek bunday nafni qonunga hilof ravishda taqdim etishi.

Korrupsiyaviy harakatlar - xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlarini yo'lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo'lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog'oz, boshqa ko'rinishdagi mulk, mulkiy huquqlar, mulkiy harakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish yoki/va bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarida o'z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish.

Korrupsiyaviy huqubuzarlik – sodir etilganlik uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida javobgarlik belgilab qo'yilgan korrupsiya alomatlariga ega xatti – harakat;

Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi - Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurshish vazifasi yuklangan tarkibiy tuzilma.

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi – korrupsiyaviy harakatlarning, O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchiligi hamda Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga doir ichki hujjatlari buzilishini oldini olish, Jamiyat xodimlari tomonidan o'z faoliyatini professional va hulq – atvor jihatdan yuksak darajaga ko'tarilishini ta'minlash bo'yicha majmuiy chora – tadbirlar.

Kronizm – do'stlar yoki ishonchli shaxslarga noqonuniy imtiyozlar taqdim etish maqsadida hokimiyat (lavozim mavqei) va nufuzidan foydalanish.

Shafelik – Jamiyat xodimining lavozimi yuqoriroq bo'lgan boshqa xodim tomonidan qulay mehnat sharoitlarini yaratib berish shaklidagi himoyasi, uni qo'llab quvvatlashi va yonini olishi.

Urug' – aymoqchilik – Jamiyat xodimining avlod –ajdodlari bir bo'lgan, bir sulolaga mansublik asosida uchinchi shaxslarga nisbatan subyektiv, imtiyozli va noxolis munosabat shaklidagi shaxsiy manfaatdorligi.

Mahalliychilik – shaxsni uni nasliy kelib chiqishi (aslzoda yoki mashxur sulola vakili ekanligi va u jamiyat tomonidan e'tirof etilganligi) hamda yaqin qarindoshlarining egallab turgan xizmat mavqei sababli, uning lavozimiga qo'yiladigan malaka talablariga mos kelish kelmasligini hisobga olmagan holda ishga qabul qilish, rotasiya qilish va lavozimga tayinlash.

Favoritizm - Jamiyat xodimi boshqa shaxs yoki/va shaxslar guruhi manfaatlariga qaraganda bitta shaxs va/yoki shaxslar guruhi manfaatlariga ustuvor ahamiyat qaratish, mukofot puli berish, davlat mukofatlariga tavsiya etish, ta'til berish yoki sihatgohlar hamda xorijiy safarlarga jo'natish, murojaatlar, shuningdek ish va navbatchiliklar jadvalini ko'rib chiqishda ketma – ketlikni yo'lga qo'yish bilan bog'liq vaziyatlarda tartiblarga rioya qilmaslik.

Mansabdor shaxs – doimiy, vaqtincha yoki vakolat bo'yicha tayinlanadigan yoki saylanadigan, hokimiyat vakili vazifalarini bajaradigan yoxud davlat organlarida, fuqarolarning o'zini - o'zi boshqarish organlarida, mulk shaklidan qat'iy nazar, korxonalarda, muassasalarda, tashkilotlarda tashkiliy boshqauv, ma'muriy ho'jalik vazifalarini amalga oshiradigan va yuridik ahamiyatga ega harakatlarni sodir etishga vakolat berilgan shaxs, halqaro tashkilotda yoxud chet davlatlarning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, ma'muriy yoki sud organida mazkur vazifalarni amalga oshiruvchi shaxs.

Manfaatlar to'qnashuvi – Jamiyat xodimining shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, Jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama – qarshilik yuzaga kelayotgan yoki kelishi mumkin bo'lgan vaziyat.

Manfaatlar to'qnasuvini oshkor qilish – xodimlar tomonidan potensial yoki real manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida e'lon qilish tartib tamoyili.

Xodim - Jamiyat bilan mehnat shartnomalariga kirishgan Jismoniy shaxs.

Potensial manfaatlar to'qnashuvi – xodimning, unin yaqin qarindoshlarining va /yoki Jamiyat bilan bog'liq shaxsning shaxsiy manfaatlari (shaxsiy, ijtimoiy, mulkiy va boshqa manfaatlari) muayyan vaziyatlar yuzaga kelganda, ular Jamiyatning manfaatlariga qarama – qarshi bo'lishi va Jamiyat xodimlari tomonidan xizmat vazifalarini bajarishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan vaziyat.

Real manfaatlar to'qnashuvi – xodimning, uning yaqin qarindoshlarining – va (yoki) Jamiyat bilan bog'liq bo'lgan shaxsning shaxsiy manfaatlari, Jamiyat manfaatlariga bevosita yoki bilvosita qarama – qarshi bo'lgan vaziyat.

Xodimning shaxsiy manfaatdorligi - xodim tomonidan o'z xizmat vazifalarini bajarish doirasida uning yaqin qarindoshlari yoki xodimga aloqador bo'lgan shaxslar tomonidan xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan pul mablag'lari, moddiy yoki nomoddiy qiymatliklar, boshqa mol - mulk, boylik va imtiyozlar ko'rinishida shaxsiy naf olish imkoniyati (shaxsiy, ijtimoiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa manfaatlari).

Yaqin qarindoshlar – qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo‘lgan shaxslar, ya’ni ota – ona, tug‘shgan va o‘gay aka uka va opa – singillar, er –xotin, farzand, shu jumladan farzandlikka olinganlar, bobo, buvi, nevaralar, shuningdek er – xotinning ota – onasi, tug‘ishgan va o‘gay aka – uka va opa singillari.

Tasdiqlayman:

Boshqaruv raisi – bosh direktor

Pirmatov R.X.

Kelishildi:

Boshqaruv raisining birinchi o‘rinbosari
ijrochi direktor

Axmedov D.T.

Korporativ xavfsizlik va resurslarni
himoya qilish departamenti direktori

Xojiyev T.T.

Ishlab chiqdi:

Komplayens xizmati boshlig‘i

Badalbayev A.A.